

"Ammofos-Maxam" Ajda "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi

// 18.09.2025

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/ammofos-maxam-ajda-rahbar-va-yoshlar-uchrashuvi-bo-lib-o-tdi>



Bugungi kunda yoshlarga qaratilgan e'tibor, ularning fikrini eshitish, salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun sharoit yaratish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillardan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, **"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati** tomonidan tizimdagi yosh mutaxassislar bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish maqsadida **"Rahbar va yoshlar uchrashuvi"** tashkil etib kelinmoqda.



"O'zkiyosanoat" AJ raisi Odil Temirovning navbatdagi uchrashuvi **"Ammofos-Maksam" AJ yoshlari bilan bo'lib o'tdi.**

Tadbirda "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi a'zolari, "Ammofos-Maksam" AJ rahbariyati, korxonada faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirning asosiy maqsadi – yoshlar tomonidan bildirilayotgan tashabbus, taklif va g'oyalarni amaliy qo'llab-quvvatlash, ularning ish joyida duch kelayotgan muammolarini o'rganish, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash hamda rahbariyat va yoshlar o'rtasida doimiy, samarali muloqotni yo'lga qo'yishdan iboratdir.



Uchrashuvda yoshlar o'z taklif va savollari bilan to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ayniqsa, ish muhitidagi sharoitlar, malaka oshirish imkoniyatlari, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bo'yicha qator taklif va tashabbuslar bildirildi.

Xususan, korxona yoshlarini oliy ta'lim bilan qamrab olish, yosh mutaxassislarni malakalarini oshirishlari uchun yurtimizdagi boshqa tarmoq korxonalari faoliyatini o'rganish, ishlab chiqarishga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Rahbariyat bu takliflarni alohida qayd etib, ayrim loyihalarni amaliyotga tatbiq etilishini ma'lum qildi. Shuningdek, rahbariyat va yoshlar o'rtasidagi samarali muloqotni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



Tadbir so'ngida yoshlar faolligi, ularning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki va tashabbuskorligi yuqori baholandi. Ayrim faol yoshlar **tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari** bilan taqdirlandi. Bunday uchrashuvlar yoshlarning o'z sohasiga bo'lgan mehrini yanada oshirish, ularda mas'uliyat va tashabbuskorlikni yuksaltirishda muhim o'rin tutayotgani ta'kidlandi.



"O'zkiyosanoat" AJ tizimida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" an'anaga aylanib bormoqda. Bu esa nafaqat mustahkam ichki korporativ madaniyatni shakllantirish, balki tizimdagi kadrlar siyosatida yoshlarning o'rni va rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Yoshlar bilan olib borilayotgan bunday ochiq muloqotlar, ularga nisbatan bildirilayotgan ishonch va e'tibor – soha taraqqiyotining mustahkam poydevori

hisoblanadi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati